

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI


ROMAN – GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI

BOLIKULOVA HILOLA

BITIRUV MALAKAVIY ISHI
MAVZU: ITALYAN TILI JARGONLARI

Ilmiy rahbar : o`qituvchi Xamraqulova F.

Kontsultant : f. f. n. Suvonova N.



Samarqand-2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ALOHIDA SOHALARDA ISHLATILADIGAN TILLAR HAQIDA	
1.1. Adabiy til me'yorlari va uning buzilishiga sabab bo'luvchi omillar.....	9
1.2. Sleng (jargon, argo) ning kelib chiqish tarixi.....	19
1.3. Sleng – so'zlashuv tiliga xos hodisa sifatida.....	24
I bobga xulosa.....	29
II BOB UMUMIY VA CHEGARALANGAN LEKSIKA.....	31
2.1. Jargon: guruhlanmagan unsurlar leksikasi.....	35
2.2. Yoshlar tili – jargonning bir ko'rinishi.....	36
2.3. Dialektik jargonlar.....	43
2.4. Jargonlar va ularning boshqa tillardagi qiyosiy tahlili.....	46
II bobga xulosa.....	49
XULOSA.....	50
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	53
ILOVA.....	58

KIRISH

Xalqaro aloqalarning kengayib borishi, millatlarning muvaffaqiyat va yutuqlarining samimiy umumlashuvi, ayniqsa, fan, madaniyat, sanoat, siyosat va xalq xo'jaligi sohalaridagi ilg'or tajriba almashinuvlar, dunyoning barcha burchagidan kelgan xabar, ma'lumotlarni har kim o'z ona tilida qayta ishlab chiqishi kabi ob'ektiv va zaruriy omillar, tillar rivojiga, ular lug'at tarkibining tashqi manbalar hisobiga boyib borishiga barakali ta'sir qilmoqda.

Mamlakatimizning istiqloлга erishishi, o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotida ulkan ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Istiqloл tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, axloqiy e'tiqodlari milliy ruh va yangi mazmun bilan to'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish¹" davlat ishi ahamiyatiga molik ekanligini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, o'zbek tili sohasida ham milliy ruh va milliy imkoniyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. So'nggi yillarda o'zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo'nalishlari rivojlandi. Bular ichida, ayniqsa, tilga izchil yondashish va vazifaviy tahlil yo'nalishlari alohida o'rin tutadi. Til va nutq yaxlit bir hodisaning ikki tomoni sifatida belgilandi.

Uzoq o'tmishga nazar tashlasak, chet el so'zlari o'zga tillarga asosan og'zaki muomala (so'zlashuv) yo'li bilan o'tganligini ko'ramiz. Og'zaki muomala esa yaqin qo'shnichilikda, xalqlarning bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib o'tishida, savdo va oldi-sotdi ishlarida yoki o'zaro urushlarda yuz bergan. Bular so'z o'zlashuvining sabablari xususiyatining bir tomonini xarakterlasa, ikkinchi tomondan, ular xalqlar ruhiga ham bog'liq bo'lgan. Chunki odamning qo'li va ko'ziga qaraganda, uning qulog'i va tili ancha faolroqdir.

Hozirgi kundagi ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishning o'sishi, kompyuter texnologiyasining dunyoning hamma burchaklariga shaxdam qadamlar bilan kirib borishi xalq va tillarning bir - biridan ajralib, aloqasiz yashashga bo'lgan

¹ И.А.Каримов "Ўзбекистон буюк келажак сари"- Тошкент "Ўзбекистон". 1998

imkoniyatlarini butunlay yo`qqa chiqardi. Bundan tashqari, yer yuzida o`z taraqqiyoti davomida boshqa xalqlar muvaffaqiyatlariga e`tiborsizlik bilan qaragan va ular bilan tajriba almashmagan birorta ham xalq yo`q. Tabiiyki, bularning bari, avvalo, tilda va til orqali xalqda namoyon bo`ladi. Har qanday milliy tilning lug`at tarkibi, uning jami so`z boyligi shu millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Tarixiy taraqqiyotning uzoq o`tmishga borib taqalishi esa, har bir tilning lug`at tarkibidagi so`zlarning qachon va qanday paydo bo`lganligi, bu so`zlar uning o`zining ichki imkoniyatlari asosida, o`zining mahsuli sifatida yaratilganmi yoki unga tashqaridan, ya`ni o`zga tillardan kirib kelganmi, degan masalalarning o`rganilishini taqozo qiladi.

Har bir tilning lug`at tarkibi nihoyatda boy hisoblanadi. Undan tashqari, ular doimiy o`shishda va rivojlanishda bo`ladi. Tillarning boyligi, birinchidan, uning doimiy harakati va o`shishida bilinsa, ikkinchi tomondan, uning ichki va tashqi manbalardan ratsional foydalana olganligida bilinadi.

Kompyuter asriga qadam qo`ygan ekanmiz, ijtimoiy hayotning ko`pgina sohalarida yangiliklar mislsiz darajada yangi so`z va atamalarni yaratdiki, bular dunyoning qaysi tilida va qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo`lishiga qaramay, o`zbek tili lug`at tarkibining boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta`sir qilib kelyapti. Ular o`zbek tilining ichki imkoniyatlariga suyanan holda qabul qilindi. Bu leksik birliklardan o`zbek xalqi o`zining og`zaki va yozma nutqida faol foydalanib kelyapti.

Mavzuning dolzarbligi. O`zbekiston Respublikasining o`z mustaqilligini qo`lga kiritishi hamda tilimizga Davlat tili maqomining berilishi o`zbek tilining boshqa tillar bilan aloqasini kengaytirdi. Bu esa o`z navbatida tilshunoslarimiz oldiga qator nazariy va amaliy masalalarni hal qilish vazifalarini qo`ydi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, eng avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi orqali singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. Inson o`z ona tilini mukammal bilmay turib boshqa xorijiy

tillarni egallay olmaydi”². “O`z tilini yo`qotgan har qanday millat o`zligidan judo bo`lishi muqarrardir. Boy va go`zal ona tilimiz bilan uzviy bog`liq holda o`lmas milliy qadriyatlarimiz ham mafkuraviy tarbiyamizning muhim bir qismi bo`lmog`i lozim”<sup>3</sup> degan fikrlari bu borada olib borilayotgan ilmiy ishlarda dasturamal bo`lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda tilning (nafaqat o`zbek tilining balki boshqa tillar: Italiyan tilini bunga misol qilib oldik) yashirin qatlamlarini o`rganishni o`z oldimizga maqsad qildik.

***Muammoning o`rganilganlik darajasi.*** Yoshlar tili paydo bo`libdiki, uni dunyoning barcha burchaklaridagi tilshunos olimlar har tomonlama o`rganishga intilganlar va hanuzgacha bu tilga katta qiziqish bilan qarab, o`rganib kelmoqdalar. Jumladan o`zbek, rus va Italiyan tilshunos olimlari bu borada juda ko`p ishlarni amalga oshirganlar.

Birinchilardan bo`lib tilshunoslik va aynan yoshlar tili borasida ish olib borgan tilshunos olimlardan biri Ferdinand de Saussurening vafotidan keyin shogirdlari asarlarini yig`ib, 1916 yili Parijda chop ettirgan “*Cours de linguistique g`n`urale*” asari, tilshunoslik va yoshlar tili borasida juda katta ahamiyatga ega.

Yoshlar tili, aynan jargon, argo va sleng Italiyada keng qo`llanilgani tufayli bu sohada Italiyada ham ko`p ishlar amalga oshirilgan. Italiyan tilshunoslaridan biri Edgar Radtke 1991-yili Milanda chop ettirgan “*Atti del seminario sul ‘Linguaggio giovanile’ di Villa Vigoni*” va 1993-yil bosib chiqilgan “*La lingua dei giovani*” asari, Roberto Giacomellining 1992-yilda chop ettirgan “*Il linguaggio dei giornali giovanili*” asari, Augusta Forconining 1988-yili bosib chiqilgan “*La mala lingua. Dizionario dello "slang" Italiano*” asari, Lorenzo Coverining 1991-yil yozgan “*Novita del/sul linguaggio giovanile*” asari, Emanuele Banfining 1992-

² И.А.Каримов. Миллий истиқлол мафкураси – халқ еътиқоди ва буюк келажакка иш. 2008. б.83.

³ И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, онгидир. - Тошкент: Ўзбекистон, 2000. б: 23

yil chop ettirgan *"Il linguaggio giovanile degli anni Novanta. Regole, invenzioni, gioco"* va 1997-yil yozgan *"Linguaggio dei giovani", "linguaggio giovanile" e "Italiyano dei giovani"* asari, Gian Ruggero Manzoning 1980-yili yozilgan *"Pesta duro e vai tranquillo. Dizionario del linguaggio giovanile"* asarlari juda katta ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunoslaridan biri Axamanova O.S ning 1957-yili chop ettirgan *"Очерки по общей и русской лексикологии"* maqolasi va 1969-yili bosib chiqilgan *"Словарь лингвистических терминов"* lug'atlari tilshunoslikda keng qo'llaniladi.

Yoshlar tili va sleng (argo, jargon) borasida rus olimlari ham bir talay ishlar olib borgan. Borisova – Lukashanes E.G.ning Moskvada 1983-yili chop ettirgan *"О лексике современного молодежного жаргона"* asari, Batyukova N.V.ning 1989-yili yozilgan *"О соотношении студенческого жаргона и городского просторечия"* asari, Ermakova O.P.ning *"Семантические процессы в русском молодежном жаргоне // Поэтика. Стилистика. Язык и культура"* maqolasi, Lipatov A.T.ning *"Русский сленг и его соотносительность с жаргоном и аргом"* asari, Pervuxina E.ning *"Молодежный жаргон 90-х годов"* maqolasi, Petrova N.ning *"Заметки о подростковом сленге"* asarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz siz bilan ba'zi tilshunos olimlar va ularning asarlari bilan tanishdik xolos. Bunday tilshunos olimlarning "Yoshlar tili", aniqroq qilib aytganda jargon, argo va sleng mavzusida juda ko'p izlanishlar olib borganlar. Ularning mana shu izlanishlari va bizga yozib qoldirgan ma'lumotlari bu mavzuning qanchalik o'rganganlik darajasini belgilashga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Italiyan tilida sleng, argo va jargonlarning ishlatilish qonuniyatlari, ularning paydo bo'lish sabablarini o'rganish, kelib chiqish va tarixini o'rganish, ularning semantik va uslubiy xususiyatlari, turli struktur-semantik o'zgarishlarga uchrashi natijasida okkazional jargonlar va slenglarning vujudga kelish omillari borasida izlanishlar, Italiyan tiliga boshqa tillardan kirib kelgan va Italiyan tilidan boshqa tillarga ko'chgan jargon va slenglarni tadqiq etish ishning asosiy maqsadi qilib olindi.

Tadqiqot vazifalari. Diplom ishida nazarda tutilgan maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish orqali erishildi.

- italiyan tilidagi slenglarning, jargonlarning kelib chiqish tarixini o`rganish;
- sleng va jargonlarning tilshunoslikda o`rganilish masalasiga munosabat bildirish;
- sleng va jargonlarning o`zaro aloqadorligi hamda farqli tomonlarini ochib berish;
- umum va chegaralangan leksikaning o`xshash va farqli tomonlari xususida izlanishlar olib borish;
- nutq me'yorlarining buzilish sabablarini ko`rib chiqish;
- dialektik jargonlarni o`rganish;
- o`zlashgan jargonlarning xususiyatlari haqida izlanish olib borish;
- sleng va jargonlarni boshqa tillar bilan qiyoslab tahlil etish;
- "Italiyan tilidagi sleng va jargonlarning alifbo ko`rsatkichi"ni tuzish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. O`zbek, rus va Italiyan matbuoti materiallari, nazariy adabiyotlar, o`zbek, rus, Italiyan olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari, shu sohada bildirgan fikrlari, matbuot maqolalari, o`zbek, rus va Italiyan tili lug`atlari, internet manbalar tadqiqot ob'ekti bo`lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodlari. Italiyan tilining jargon va slenglarini yozma va og`zaki nutqda farqlash va ularni funksional-uslubiy jihatdan tadqiq etishda dialektika kategoriyalari mazkur diplom ishi uchun metodologik asos vazifasini o`tadi.

Ishda jargon va slenglarni struktural-semantik, funksional uslubiy xususiyatlarini yoritishda sinxron yo`nalishda tasviriy izohlash, tahlil va grafika usullaridan foydalanildi.

Mavzu mohiyatini ochib berishda Italiyan, rus va o`zbek tilshunosligidagi yetuk olimlarning ishlari mazkur tadqiqot uchun nazariy asos qilib olindi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Slenglar va jargonlar tizimining xarakterli tomonlari;
2. Sleng va jargonlarning adabiy tilga ta'siri;

3. Chegaralangan leksikada jargonning o`rganilish darajasi;
4. Nutq me`yorlari buzilishining asosiy sabablari;
5. Sleng va jargonlarning o`ziga xos semantik va uslubiy xususiyatlari;
6. Italiyan tilidagi va boshqa tillardagi jargon va slenglarning qiyosiy tahlili;
7. Italiyan tilidagi sleng va jargonlarning xususiyatlari;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Italiyan tilidagi slenglar va jargonlar o`rganilib quyidagi natijalarga erishildi:

- italiyan tilidagi sleng va jargonlarning keng tarqalish sabablari funksional-semantik va stuktural jihatdan tadqiq etildi;
- sleng va jargonlarning paydo bo`lish sabablarining tilshunoslikda o`rganilishiga munosabat bildirildi;
- italiyan tili og`zaki va yozma nutqida mavjud sleng va iboralar to`planib, tartibga keltirildi;
- sleng va jargonlarning o`zaro aloqadorligi hamda farqli tomonlari aniqlandi;
- sleng va jargonlar o`zaro ajratilib tahlil qilindi;
- sleng va jargonlarning semantik xususiyatlariga ayrim aniqliklar kiritildi;
- sleng va jargonlarning og`zaki va yozma nutqdagi individual ko`rinishlari, ularning uslubiy vazifalari belgilandi;
- “Italiyan tilidagi sleng va jargonlarining alifbo ko`rsatkichi” tadqiqotga ilova qilindi.

Diplom ishining tuzilishi va hajmi. Diplom ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovadan iborat bo`lib, 60 sahifani tashkil etadi. “Italiyan tilidagi sleng va jargonlarning alifbo ko`rsatkichi” ishda ilova tarzida keltirilgan.

I BOB

ALOHIDA SOHALARDA ISHLATILADIGAN TILLAR HAQIDA

Har bir til o'zining boy lisoniy vositalariga ega. Tildagi so'zlarning jami uning leksikasini, ya'ni lug'at boyligini tashkil etadi. Leksikologiya (yunoncha *lexikos* – lug'atga oid va *logos* – ta'limot) tilshunoslikning lug'aviy birliklar tarkibini tekshiradigan bo'limidir. Tilning lug'at tarkibi va uni tashkil etuvchi so'zlar bir qator umumiyliklarga ega. Ular quyidagilarda ko'zga tashlanadi: 1) tildagi so'zlar muayyan ma'no ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. So'zning ma'no xususiyatlari leksikologiya degan bo'limida o'rganiladi; 2) har qaday tilning taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan o'zgarishlar avvalo uning leksikasida o'z aksini topadi. Chunki til jamiyat taraqqiyoti davomida yangi-yangi so'zlar hisobiga boyib boradi, ayni paytda ba'zi so'zlar eskiradi va asta-sekin iste'moldan chiqadi; 3) tilning lug'at tarkbidagi so'zlar iste'mol darajasiga ko'ra chegaralangan yoki chegaralanmaganligi bilan ham farqlanadi. Xususan, ba'zi so'zlar umumxalq iste'molida bo'lsa (*ota, ona, yurmoq, men, sen*), ayrim so'zlaning iste'mol darajasi chegaralangan bo'ladi. Masalan, shevaga oid so'zlarning hududiy chegaralanishi, shular jumlasidandir; 4) so'zlar nutq uslubiga bo'lgan munosabatiga ko'ra ham farqlanadi. Jumladan, ba'zi so'zlar uslubiy betaraf bo'lsa, ba'zilari esa nutq uslubining ma'lum turiga mansubligi bilan farqlanadi; 5) har bir so'z tovush qiyofasi va ma'noga, ya'ni shakl va mazmunga ega. Shunga ko'ra, so'zlar omonim, paronim, sinonim, antonim munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tilning eng muhim birliklaridan bo'lgan so'zlarga xos bu umumiyliklar leksikologiya asosiy tekshirish ob'yektidir.

Alohida sohalarda ishlatiladigan tillar deb odatda ma'lum bir sohaga oid leksika tushuniladi. Masalan, siyosiy leksika, reklamaga oid leksika, sportga oid leksika, texnik-ilmiy sohaning keng leksikasi (tibbiyot leksikasi, fizika, kimyo, iqtisod, sotsiologiya, matematikaga oid leksikalar)⁴. Shu bilan birga shu sohalarga

⁴ Michele A.Cortelazzo, "L'influsso dei linguaggi settoriali", in Banfi-Sobrero 1992, p: 71-84.

oid lugʻatlar ham mavjud. Yana shuni aytib oʻtish kerakki, bu leksikalarning bari oʻzaro yana boʻlinishi mumkin (misol uchun atom fizikasi leksikasi yoki boʻlmasa biokimyo leksikasi). Ammo bu narsa ajablanarli holat emas. Umuman olganda taraqqiyot bilim sohalarining kengayishiga olib keladi. Bu boʻlinishlarning barchasi yangi kashfiyotlar, yangi uslublar, yangi qoidalarining dunyoga kelishi bilan bogʻliq.

Tilimizda soʻzlashuvchi barcha kishilar nutqida birdek ishlatiladigan soʻzlar umumxalq leksikasi deb yuritiladi. Bulardan tashqari, barchaning nutqida ishlatilmaydigan, shevalarga, kasb-hunarga, maʼlum ijtimoiy guruhlar nutqiga, ilm-fan sohaları vakillari nutqiga xos soʻzlar ham mavjudki, ular isteʼmol doirasi chegaralangan leksikani tashkil etadi. Ularning quyidagi turlari mavjud:

Dialektizmlar. Maʼlum bir hududda yashovchi kishilar nutqida ishlatiladigan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan soʻzlar dialektizmlar deyiladi.

Kasb-hunar leksikasi ham adabiy tilga nisbatan chegaralangan soʻzlar qatoriga kiradi. Chunki ular ham maʼlum bir kasb-hunar vakillari nutqidagina koʻp ishlatilib, boshqa kishilar uchun tushunarsiz boʻladi.

Terminlar. Ilm-fan, texnika, sanʼat sohasidagi aniq bir tushunchani ifodalaydigan bir maʼnoli soʻzlardir.

Jargon va argolar. Maʼlum ijtimoiy sinf, tabaqa, guruh vakillari nutqida qoʻllaniladigan, baʼzan yashirin maʼnoli boʻlgan soʻzlardir. Bu soʻzlar ham chegaralangan leksik birliklar qatoriga mansub boʻlib, jargonlar yuqori sinf vakillari nutqida qoʻllanilib kelingan. Argolar esa, yashirin maʼnoli soʻzlardan iborat.

Ammo bir narsani insonni ajablantiradi. Sohaga oid leksikaning adabiy tildan nima farqi bor? Leksik nuqtai nazardan sohaga oid leksika adabiy tilda mavjud boʻlmagan soʻz va iboralar lugʻatiga ega boʻladi. Baʼzan huddi adabiy tilda mavjud lugʻatga ega boʻladi, ammo bu lugʻatdan maxsus va oʻzga maʼnolarda foydalaniladi. Masalan, mexanikaning avtomobillarga oid maxsus sohasida *spinterogno* va *tachimetro* singari maxsus soʻzlar mavjud, ammo adabiy tilga oid soʻzlar ham yoʻq emas. Masalan, *combio* soʻzi mexanikada ikki aylanuvchi jism

orasidagi munosabatni almashtirishga xizmat qiluvchi uskuna singari maxsus ma'noga ega. Turli sohaga oid leksikalar turli xil ma'no darajalariga ega bo'ladi (masalan, siyosiy leksika tibbiyot leksikasiga nisbatan muhimlik darajasi kam hisoblanadi). Har qanday holatda adabiy til leksikasini sohaga oid leksikadan farqlovchi, ularni bir-biridan ajratuvchi farqlarni yaqqol ko`ramiz.

- Biror bir sohaga oid leksikaning so`zi kontekstda faqat bir ma'noga ega bo'ladi. Huddi shu paytning o`zida adabiy til leksikasidagi biror bir so`z birdan ortiq ma'no anglatishi mumkin (masalan, polisemiya); misol uchun, adabiy tilda *cambio* so`zi birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ammo avtouskunalar haqida gap ketganda faqat bir ma'noga ega bo'ladi; *complesso* va *rimuovere* so`zlari psixoanaliz sohasida maxsus ma'noga ega bo'ladi; adabiy tildagi *anello*, *asse*, *base*, *bottone*, *campo*, *centro* (yakka holda yoki aniqlikni anglatuvchi biror bir element bilan, ya'ni sifat yoki sintagma “ *di+ nome*”: *campo magnetic*, *campo di forze*) turli sohalarda turli xil ma'nolarda qo'llaniladi.

- Biror bir so`zni sohaga oid leksikaga tegishliligini aniqlash uchun u tegishli bo'lgan lug`atdagi boshqa so`zlar bilan munosabatini o`rganishimiz kerak.

- Sohaga oid leksikaning biror bir so`zi u anglatayotgan narsa bilan bog`liq bo'ladi: texnik atamalar boshqa til va boshqa madaniyatdan o`zlari anglatayotgan narsalar nomi bilan birgalikda qabul qilinadi.

Biror bir yangi sohaning texnik ilmiy lug`atini yaratish uchun 3 ta turli xil prinsplarga asoslanishi mumkin:

1. Lingvistik o`zlashmalarga murojaat qilish mumkin; ko`pincha murojaat qilinadigan tillar ingliz tili (masalan, atom fizikasi lug`ati), lotin va yunon tili (tibbiyot lug`ati).

Yunon tilidan asosan ko`pchilik sodda so`zlar kirib kelgan. Texnik- ilmiy sohada ishlatiladigan murakkab yunoncha so`zlarning katta qismi zamonaviy taraqqiyot hosilalaridir. Buning natijasida yunon so`zlarining asl ma'nosi yo`qoladi va ular ko`proq zamonaviylikka moslashadi. Misol uchun: *anemodenamometro*= *anemo* “*vento*” + *dinamo* “*forza*” + *metro* “*misura*”; bundan tashqari gibril qo`shma so`zlari ham mavjud: *Greco* + *latino* (*aeronave*,

elettromotrice), *latino+ Greco* (*altimetro, spettroscopio*), *lingua moderna + Greco* (*burocrazia, filmoteca*).

2. Soʻz yasash usullariga murojaat qilish mumkin. Aynan suffiks va prefiks qoʻshimchalar ilmiy-texnik lugʻatda alohida tarqalishgan. Misol uchun: tibbiyotda kasalliklarga tegishli boʻlgan jadvalda koʻpincha aynan yunon tilidan olingan suffikslardan foydalaniladi:

suffiks:

kasallik nomi:

-ite = oʻtkir yalligʻlanish

artrite, dermatite, nevrite

-osi = surunkali kasallik

artrosi, dermatosi, cirrosi

-oma = oʻsimtali kasallik

carcinoma, fibroma

1. Adabiy til yoki texnik lugʻatda mavjud boʻlgan soʻzga yangi va maxsus maʼno berish mumkin. Adabiy tilga tegishli boʻlgan *anello, asse, base, bottone, campo, centro, movimento* soʻzlari yakka holda yoki biror bir aniqlashtiruvchi element yordamida turli soha leksikalariga tegishli boʻlgan maxsus maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. Masalan, *campo* soʻzini olaylik: *campo di aviazione, campo sportive, campo trincerato* kabilar; yanayam maxsusroq sohaga oid boʻlgan soʻzlar: *campo di forze, campo magnetic, campo gravitazionale, campo vettoriale, campo visivo* kabilar.

Demak, sohaga oid leksika adabiy tilda mavjud lugʻat bilan birga va umuman unda mavjud boʻlmagan soʻzlar yordamida oʻzining maxsus kodlangan leksikasini yaratadi. Turli sohalar aynan oʻsha sohada maxsus maʼno aks ettiradigan leksik lugʻatlarga ega boʻladi.

1.1. Adabiy til meʼyorlari va uning buzilishiga sabab boʻluvchi omillar.

Nutq faqatgina lingvistik hodisa boʻlmasdan, balki ruhiy (psixologik), nafosat (estetik) hodisa hamdir. Shu bois yuqori darajadagi nutq deyilganda, aytilmoqchi boʻlgan fikrning tinglovchiga toʻlaqonli yetib borishi, ularga maʼlum taʼsirini oʻtkazishi nazarda tutiladi.

Nutqning kommunikativ (aloqaviy) sifati quyidagi lingvistik va ekstralingvistik mezonlarga bevosita bogʻliqdir: nutqning toʻgʻriligi, nutqning

aniqligi, nutqning mantiqiyliigi, nutqning tozaligi, nutqning ta'sirchanligi (obrazlilik).

Nutqning to`qriligi. Nutqning bosh kommunikativ sifati nutqning to`g`ri bo`lishidir. Adabiy tilning fonetik, orfoepik, leksik va grammatik me`yorlari talablariga to`la mos keladigan nutq to`g`ri nutq sanaladi. Til birliklarini to`g`ri, ifodali talaffuz qilish, ya`ni so`z va mantiqiy urg`u, oqang, pauzaga asosiy e`tiborni qaratish orqali nutq to`qriligi yuzaga keladi. Nutqning to`g`ri bo`lishi, asosan, so`z va mantiqiy urg`uning to`g`ri qo`yilishiga ham bog`liq. Rus tilida urg`u erkin bo`lsa, o`zbek tilida urg`u asosan, so`zning oxirgi bo`g`iniga tushadi. Italiyan tilida ham urg`u so`zning deyarli oxirgi bug`iniga tushsada, ammo uning ko`chishi ham tez-tez kuzatiladi. Agar so`zning o`zagiga qo`shimchalar qo`shilsa urg`u o`z o`mini o`zgartirib, oxirgi bo`g`inga ko`chadi. Bu holat adabiy me`yor hisoblanadi.

Til elementlarining ma`lum bir me`yorga keltirilishi, bir tomondan, til mutaxassislari tomonidan boshqarib borilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy ravishda ham yuz beradi. Ammo, fikrimizcha, bir narsa ma`lum - tilning amalda bo`lish holatlariga tazyiq o`tkazib bo`lmaydi. Lekin tegishli yo`l-yo`riqlar, ko`rsatmalar, tavsiyalar berilib borilishi zarur.

Ammo o`zbek tili va nutq madaniyati uchun olib borayotgan ishlarimiz talablar darajasida emas. Bu vazifalarni ijobiy hal qilish uchun adabiy til me`yorini belgilashning amaliy jihati bilan jiddiy shug`ullanishimiz kerak. Xo`sh, me`yorni belgilashning amaliy jihati nimadan iborat? Tadqiqotlar va kuzatishlar natijasida til elementlarida qanday mazmuniy va shakliy imkoniyatlar mavjudligi tahlil qilinadi, lingvistik imkoniyatlari ochib beriladi va ulardan nutq jarayonida foydalanish yo`llari tavsiya qilinadi. Ma`lum ma`noda bu ham ularning me`yorni belgilash va til birliklarining ishlatilishiga oid tavsiyalar berish degan gapdir.

Til birliklarini me`yorlashtirish, hamma uchun umumiy va tushunarli bo`lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanalsa ham, u nutq madaniyati sohasining xizmatlarini inkor etmaydi. Binobarin, me`yor muammolari hamisha ushbu sohaning tadqiqot obyekti bo`lib qolaveradi. Nutq madaniyati tilda

ma'lum me'yorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart- sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me'yorga amal qilishni ma'lum ma'noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, bu kamchiliklarni tugatishning eng ma'qul yo'llari ko'rsatib turiladi. "Nutq madaniyati keng miqyosidagi til tarbiyasini va ommaviy stilistik savodlilikni, boshqacha aytganda, so'zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi"⁵.

Til elementlarining me'yorlashishidek uzluksiz jarayonda eskilik bilan yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. Tilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'rniga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'rnini bo'shatib bormaydi. Ma'lum muddat ular teng darajada, parallel yashab turishi va vaqtlar o'tishi bilangina o'rnini bo'shatib berishi mumkin.

Xuddi mana shu eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash va bu kurashda tildagi me'yoriy ko'rinishlarning tanlana borishi jarayonida adabiy til shakllanib boradi. O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi, hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi. Garchi umumxalq tilining hamma ko'rinishlarida, barcha til jamoalarida o'ziga xos tarzda amal qiladigan me'yorlar mavjud bo'lsa ham kodifikasiyalashtirilgan, ya'ni ma'lum qoidalarga kiritilgan me'yorlar faqat adabiy tilga xos xususiyatdir. «Faqat adabiy tildagina, - deydi V.A. Iskovich, - qanday gapirish va qanday gapirmaslik; me'yoriy grammatikalarda, lug'atlarda, ma'lumotnomalarda qayd etilgan; maktablarda o'rganiladigan qoida va ko'rsatmalar amal qiladi». Shuning uchun ham adabiy tilning umumxalq tilidan farq qiluvchi tomoni unda yagona me'yorning qat'iy amal qilinishi hisoblanadi.

⁵ Основы культуры речи: Хрестоматия, с.39.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblansa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarning, huquqshunoslarimizning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimizning xizmatlari katta bo'ldi. Ularning samarali mehnatlari tufayli tilshunoslikning ko'pgina yo'nalishlari bo'yicha qat'iy me'yorlar belgilandi, ona tilimiz rivojiga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namunaviy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko'pgina munozarali masalalar o'zining nazariy asosiga qo'yildi.

Har qanday til me'yorlarini katta ikkita guruhga – umumiy va xususiy me'yorlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Me'yorga nisbatan qo'llaniladigan umumiylik va xususiylik til me'yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma'noda o'zbek umumxalq tilidagi barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me'yorlarni xususiy me'yorlar sifatida qabul qilish mumkin.

Adabiy tilning me'yoriyligi umumxalq tilining boshqa xususiy me'yorlaridan tubdan farq qiladi. Uni tavsiflaydigan va farqlaydigan muhim belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: kodifikasiyalanganlik – ongli aralashuv yo'li bilan tanlanganlik va ongli boshqarish, ongli o'zlashganlik va anglanganlik, egallanganlik va tushunilganlik, qat'iy qoidaga va tartibga solinganlik, yozuvda mustahkamlanganlik, xalqchillik va umumqo'llanuvchanlik, umummajburiylik va namunaviylik, turg'unlik va barqarorlik, ayni paytda, ularning nisbiylik, an'anaviylik va izchillik, zamonaviylik va tipiklik, dinamiklik va tarixan o'suvchanlik, variantlilik va uslubiy tarmoqlanganlik, reallik va obyektivlik kabilar.

Me'yorlar haqida gap ketganda ko'pincha «ongli tanlash» tushunchasi esga olinadi. Haqiqatdan ham til me'yorlari faqat ongli tanlash mahsulimi? Tildagi

elementlarning me'yorlashuvida tanlashning ahamiyati katta, albatta. Jamiyat a'zolari orasida bu jarayon xuddi tabiiy tanlanish singari amalga oshiriladi, lekin u ong yordamida boshqariladi. Kishilar nutq jarayonida o'zlari uchun tushunarli, muddaosini, fikr-mulohazalarini ma'qul tarzda ifodalay oladigan, hatto talaffuzda ham qulay bo'lgan variantlarni tanlab ishlata boshlaydilar va bu variant asta-sekinlik bilan me'yoriy ko'rinish sifatida e'tirof etiladi.

Nutq jarayonidagi odat va ko'nikmalarni ana shunday bosqichlar deb tushunsak to'g'ri bo'ladi. Chunki ma'lum predmet yoki tushunchaning ifodasi, atamasi bo'lgan birlik tilda paydo bo'lar ekan, undan foydalanishga til vakillari dastlab o'rganishi, odatlanishi lozim. Bu birliklarni qanday talaffuz qilishdan tortib, u anglatgan ma'noni fahmlash, anglab yetishgacha bo'lgan jarayon yuz berishi kerak. Shunday ekan, kishi ongi va amaliyotida til birligi me'yorlashishining birinchi bosqichi odatlanish bo'lib hisoblanadi. Bu elementlar tinimsiz, takror-takror ishlatilaverishi oqibatida jamoa orasida ko'nikma hosil bo'ladi. Ko'nikmalar esa me'yorlashishni bir qadar mustahkamlaydi, deb bimalol aytish mumkin.

Nutqning tozaligi. Nutqning kommunikativ sifati faqat va faqat adabiy til doirasida bo'lgandagina shakllanadi, to'laqonli bo'ladi. Nutqning tozaligi deyilganda ham nutqning adabiy til me'yorlariga muvofiqligi tushuniladi.

Nutq madaniyati haqida gapirilganda bevosita insonning nutqda nome'yoriy so'zlarni qo'llamasdan, nutqning tozaligiga putur etkazuvchi nuqsonlarsiz fikr ifodalashi ko'zda tutiladi.

Nutqning tozaligini buzuvchi vositalarga quyidagilar kiradi:

Nutqda adabiy tilga xos bo'lmagan so'zlar, dialektizmalar, ya'ni shevaga oid so'zlarni qo'llash. Dialektizmlar badiiy asar tilida ma'lum bir estetik vazifalar - ijodkorning maqsadi va niyatini amalga oshirishda tasviriy vosita sifatida qo'llansada, madaniy nutqqa soya soluvchi vositalardir. Huquq-tartibot tizimida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar nutqida ham bunday holatlar tez-tez ko'zga tashlanadi. Shevaga oid so'zlarni nutqda tez-tez qo'llash adabiy til me'yoring buzilishiga sabab bo'ladi, natijada nutqning tozaligiga putur etadi. Masalan,

kelopty, ketvotti, bordiz, yoshulli, bolish (yostiq), garmdori (qalampir), doda, shoti kabilar.

Varvarizmlar - o'zbek adabiy tiliga o'zlashmagan xorijiy so'zlardir. Nutqda tilda muqobili bo'la turib o'zlashmagan xorijiy so'zlarni, ya'ni varvarizmlarni qo'llash nutqning tozaligini sofliqini buzadi. Masalan, voobshe, obshitada yashaydi, zaynit, tak (xo'sh deyish o'rniga), obsujdat' qilish kerak, prelest', uchebniy chast, zayavlenie, akt... Bu holat birinchidan, nutqning tozaligiga salbiy ta'sir etsa, ikkinchidan, ziyolining madaniy saviyasini, ma'naviy qiyofasini pasaytiradi.

Adiblarimiz varvarizmlardan xorijiy rasm-odatlarni tasvirlashda, ba'zan chet el madaniyati oldida sajda qiluvchi personajlar nutqini individuallashtirishda foydalanadilar.

Jargon va argolar - biror ijtimoiy guruh o'rtasida qo'llaniladigan va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so'z va iboralardir. Jargonlar fikrni boshqalardan sir tutish uchun qo'llaniladi. Jargonlar o'ziga xos sun'iy, shartli so'zlardir.

Savdogarlar, o'g'rilar, qimorbozlar, otarchilar, ba'zi dangosa talabalar o'ylab topgan xufyona so'zlar jargon deb yuritiladi. Masalan, ment (militsiya), ko'ki (AQSh pul birligi), sallasini olmoq (kallasini olmoq), mejdunarodniy (talabalar nutqida "3" baho) va boshqalar.

Jamiyatda tekinxo'rlik, boshqalar hisobiga yashashlik, maishiy buzuvlik yo'lga o'tib olgan ma'naviy buzuv guruhlar tomonidan qo'llaniladigan maxsus so'zlar argo deyiladi. Masalan, loy, yakan (pul), bedana (to'pponcha), pero (pichoq), dar (go'zal) va q.q. Bunday g'ayritabiiy so'zlar, nutq sofliqi va tozaligini pasaytiradi.

Badiiy adabiyot matnida jargonlar maxsus vazifa bajaradi. Uning ko'magida asar voqealari bir qadar ishonchli tasvir qilinishi yoki qahramonlar tili individuallashtirilishi mumkin. Masalan, S.Ravshanning «Chordoqdan otilgan o'q» (Toshkent 1986 yil) qissasi jinoyatchilar olami, ularning qiyofalari va kirdikorlarini fosh etishga bag'ishlangan bo'lib, unda uchraydigan metaforik elementlar va jargonlar yuqorida qayd etilgan vazifalarni ado etishga

ko`maklashgan: gladiator (45), qopchiq (69), qovurg`a (42), kift (31, 42), qushcha (25), murg`a (31) - o`g`rilar, jinoyatchilar guruhining a`zolari, ularning laqablari; qafas (13) - turma, arava (66) - mashina; malax (56)- pul; dum (54) - orqadan kuzatib yuruvchi odam; buyurtma, mukofot (36, 45) – o`g`irlangan mol, narsa; hammol (37) – molni olib keluvchi odam, kuryer; soqol (32, 33) – pul kabi⁶. Ma`lum bo`ladiki, tildagi me`yorlashish ko`p qirrali jarayon bo`lib, umumiste`moldagi so`zlar ma`lum kasb-hunar yoki jargon doirasida atamalashishi, asosiy me`yorlashgan holatidan chetga chiqib ketishi yoki buning aksi – kasb-hunar yoki jargonga oid xususiy me`yorlar qamrovidagi atamalarning ma`nosi kengayib, ular umumxalq mulkiga aylanishi mumkin. Zero, til taraqqiyoti o`lchovlaridan biri ham ana shu.

Kantselyarizmlar - rasmiy uslubga xos so`z va birikmalar. Masalan, yuqorida qayd etilgan, quyida bayon qilingan,...unvoni berilsin, zimmasiga yuklansin, topshirilsin, tadbirlarni ishlab chiqsin...:qat`iy shaklga kirgan bunday tayyor so`z va birikmalar hujjat matnlariga alohida rasmiylik ma`nosini beradi. Lekin kantselyarizmlar o`zi aloqador bo`lmagan boshqa nutq ko`rinishlarida, xususan so`zlashuv nutqida qo`llansa, nutqning tozaligiga putur etkazadi.

Vulgarizmlar - qo`pol, haqorat mazmunidagi so`zlar.Vulgarizmlardan badiiy asarlarda salbiy qahramonlarning dag`alligi, qo`polligi va madaniyatsizligini ko`rsatish uchun ishlatiladi. Lekin bunday so`zlarning nutqda qo`llanilishi salbiy hodisadir.

Parazit so`zlar – ortiqcha va bekorchi so`zlardir. So`zlovchining tilga e`tiborsizligi tufayli yuzaga keladi va doimiy qo`llanilib borilsa, odatga aylanib qolishi mumkin. Masalan, ya`ni, demak, xush, tak va boshqalar. Bunday lug`aviy biriklarni me`yoridan ortiq qo`llash nutqning saviyasini pasaytiradi.

Nutqning ta`sirchanligi. Ma`lumki, nutqning asosiy maqsadi tinglovchining faqat qulog`ini emas, balki qalbini ham zabt etishdir.

So`zning ostini ham, ustini ham ko`ra olishga intilish, nutqdagi so`zlarning favqulodda uyg`unligini ta`minlash notiqdan katta mehnat talab etadi.

⁶ С.Равшаннинг “Чордоқдан отилган ўк” – Тошкент -1986, 35-37 б.

Nutqning ta'sirchanligini ta'minlash nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillarni ham o'z ichiga oladi. Ekstralingvistik omillarga tilga bog'liq bo'lmagan shart-sharoitlar kiradi. Bu avvalo, notiqning yoritilishi lozim bo'lgan mavzu yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lishini taqozo etadi.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan. Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan.

Til – kishilarning fikr-muloqazalarini keng va har tomonlama yoritib berishda chegarasiz imkoniyatlarga ega. Lekin ifodalanishi lozim bo'lgan fikr-mulohazalarning yuqori darajada bo'lishi uchun tilning tasviriy vositalarini, uning turli xil ma'no nozikliklarini tinmay o'rganish lozim bo'ladi. Ana shundagina qisqa jumalarda, matnlarda olam-olam fikrlarni ifodalay olish mumkin, chunki so'z har qanday fikrning libosidir.

1.2. Sleng (jargon, argo) ning kelib chiqish tarixi

Jargonning kelib chiqish tarixi borasida turli xil qarashlar mavjud. Bu qarashlar orasida ba'zan izchil qarama-qarshiliklar ham ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik olimlar “jargon” ning kelib chiqish tarixini uzoq o'tmishga bog'lab uni quyidagicha talqin etishadi:

“Jargon” so'zi qadimda umuman boshqa ma'noni anglatgan. U fors tilidan olingan bo'lib, “циркон” - ya'ni - “цар” - тилло,” гун ” - tus, rang degani. Ana shunday “tillo tusli” toshlarni ular “jargon” deb atashgan.



(“jargon” toshi)

Har bir jargon deb nom olgan qimmatbaho tosh, donishmandlik, or-nomus, qahramonlik belgilarini o`zida aks ettirgan. Qadimda bu tosh doim o`ziga boylik va omadni tortadigan xislati bor deb qaralgan va hamma bu toshga intilgan. Bu tushdagi toshlarni asta-sekin qalloblik ishlari bilan shug`ullanadigan firibgarlar, tumor sifatida taqa boshlashgan. Ana shunday davrda kezib yuruvchi olib-sotarlar guruhi paydo bo`la boshladi. Ular mayda-chuyda narsalar: turli rasmlar, arzon kitoblar va shunga o`xshash arzimasi narsalarni sotadigan qilib kursatib, turli o`g`riliklarni amalga oshirishardilar. Mahalliy hokimiyat va mahalliy fuqarolar bilan ularning munosabatlari keskinlashayvergandan keyin, ularni tushunmasliklari uchun ular maxsus tilda so`zlasha boshladilar. Ular asosan bu mahalliyliklar uchun bebaho bo`lgan “jargon” toshlarini o`g`irlashardi. O`g`rilarning tilini aniqlamoqchi bo`lgan mahalliy olimlar, bu til qaysi oilaga kirishini aniqlay olmaganlaridan keyin, ular qiladigan ishga: ya`ni “jargon” toshlarini o`g`irlaganliklari uchun, bu maxsus tilga nisbatan “jargon” atamasini qo`llay boshladilar. Va bugungi kungacha maxsus guruhlar o`rtasidagi o`zaro qo`llaydigan maxsus tilga nisbatan “jargon” termini qo`llanilib kelinmoqda degan tahminni ilgari surishgan.

Aynan yoshlar tili borasida gap ketganda hozirgi kunda olimlar uni uch asosiy davrga bo`lib o`rganishadi. Ular:

1. 20 yillar. Bu davrda urushlar tufayli qarovsiz bolalar ko`payib ketishi natijasida turli yoshdagi bolalar, talabalar va o`smirlarning nutqi turli argolar va jargonlar bilan boyib ketdi.

2. 50 yillar. 2 davr g`ayrioddiy modaga berilgan oliftalar davri bo`ldi.

3. 70-80 yillar. Bu slenglarning yana bir portlash davri bo`ldi. Bu portlashga shu davrlarda boshlangan to`xtash, xarakatsizlik sabab bo`ldi. Bu narsa yoshlar noqonuniy xarakatlarining paydo bo`lishi va o`zlarini rasmiy g`oyadan uzoqroq tutish uchun alohida “tizimli” sleng yaratishdi. Hozirgi kunda esa yoshlar tiliga kompyuter va texnika asri katta ta`sir o`tkazmoqda.

Hozirgi zamon tilshunosligida yoshlar tiliga jargon sifatida katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa italiyan tilshunosligida yoshlar tili alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o`rinda yoshlar tili haqida buyuk tilshunos olim, italiyan va nemis tillari mutahassisi Edgar Radtkening fikrlarini ham qo`shib o`tshni lozim topdik. Bu olim yoshlar tili borasida juda noyob ma`lumotlarni ta`kidlab o`tgan. Bunga ko`ra olim yoshlar tilini semantik va grammatik jihatdan adabiy tilga yaqin deb hisoblasada<sup>7</sup>, lekin uning umri qisqaligi, o`ta o`zgaruvchanligini nazarda tutib, uni til qatlami sifatida e`tirof etadi. Yoshlar tilining aynan tilshunoslikda o`rganilishi Italiyada ancha kech boshlandi deydi olim, bunga sabab qilib esa taraqqiyotning kech boshlanganligini ko`rsatadi. Hozirgi kunda yoshlar tili, umuman jargonlarni sotsiolingvistika o`rganadi. Til qatlamlariga kiruvchi jargon, argo, slenglar esa aynan shu jamiyat qatlamlarining tili hisoblanadi.

Bir qator italiyan adabiyotlarini o`rganish natijasida shu narsaga amin bo`ldikki, italiyan tilshunosligida yoshlar tili ishlatilish doirasi qisqa bo`lgan so`zlar guruhiga kiruvchi bo`lim sifatida o`rganiladi. Bu so`zlar yig`indisi imo-ishoralar guruhiga kiradi. Bu guruhga kiruvchi leksemalar qaysidir jihatdan kodlangan bo`lib, faqat ba`zi ja`miyat guruhlari tomonidan ishlatiladi.

⁷ Edgar Radtke- Sociolinguistica –Heidelberg, 1983 p. 23-27.

Yoshlar tili guruhiga kam soʻzlar kiradi. Ularni tushunish unchalik qiyin emas va ular soʻzlashuv nutqidan unchalik ham koʻp farq qilmaydi. Bu soʻzlar metaforik turkumga xos boʻlishadi. Baʼzan assimulyatsiya, baʼzan dissimulyatsiya holatiga uchragan boʻlishi yoki shunchaki sodda gaplarga oʻxshab ketadi. Masalan:

“Sigaretta” deyish uchun *paglia*

“darsi appuntamento” deyish uchun *darsi una punta* yoki *un puntello*,

“niente me ne frega” deyish uchun *il nulla*,

“che fortuna!” deyish uchun *che bongata!*

“marmilta” = *marma*

“stare tranquillo, avere la situazione sotto controllo” maʼnosini ifodalash uchun *tranqui*.

Bu turdagi soʻzlar yigʻindisi xalqaro miqyosida “sleng” atamasi bilan ataladi.

Umuman, yoshlar jamiyatda toʻgʻri gapirib, toʻgʻri yozuvchilar maqomini olishga intilishadi. Bu ular oʻylaganchalik boʻlmasada, koʻpincha, yoshlar yaratgan gapirish usuli haqiqiy jargon sifatida bimalol qabul qilina oladi.

Yoshlar tilining ogʻzaki nutqi rivojlanishi yozma nutqning ham yuzaga kelishiga sabab boʻldiki, uning xarakterli tomoni sistematik yangilanishidir:

“C ” va “ch” harf birikmalari “k” harfi bilan;

“sei” yordamchi feʼli “6” soni bilan;

“un”, ”uno” noaniq artikllari esa “1” soni bilan almashindi;

“per” predlogi ham predlog, ham soʻz ichida kelganda “x” bilan almashtiriladi (masalan: perche` soʻzi bu holatda xke` yoki xche` ga aylanadi)

Baʼzan toʻliq gaplar ham qisqaradi, huddi TVB kabi uning toʻliq shakli “*Ti voglio bene*” maʼnosi “*seni yoqtiraman*”. Smsning dunyo yuzini koʻrishi bu koʻrinishdagi abrevatsiya shakllarining katta tezlik bilan oʻsishiga olib keldi. Smslarda kamroq yozib, koʻproq fikrni yetkaza olishga boʻlgan talab soʻzlarni iloji boricha qisqartirishga olib keldi.

Masalan:

C = ci

m = mi

t = ti

cn = con

nn = non

sn = sono

cm = come

qnd = quando

cmq = comunque

Bu turdagi yozuv usuli informatika sohasida (instant messaging, chat) ham keng tarqalgan. 2001 yildan beri *L'espresso* internet manzilida *Maria Simonetti* boshchiligida *Slangopedia on-line* lug'ati faoliyat ko'rsatadi. Bu lug'at jargonlar lug'ati bo'lib, u har ikki haftada o'quvchilar tomonidan jo'natilgan yangi belgi va so'zlar bilan yangilanib turadi.

Agar 60 yillar oxiri 70 yillarda yoshlar "siyosiy" tilda gaplashishgan bo'lsa, 80 yillar "bashang kiyinuvchilar" - "paninari"lar yili bo'ldi va bu hodisa Milandan Sitsiliyagacha keng yoyildi.

Olimlarning aytishicha yoshlar slenglari huddi meteorga o'xshab tez harakatlanadi, ularning umri ko'pi bilan o'n yilga cho'ziladi va oxirida portlab yo'qolib ketadi. Hozirgi kunda yoshlar tili haqiqatdan ham muloqotda juda tez yoyilmoqda va bunga sabab hozirgi kunda axborot texnologiyasining keng tarqalganligidadir.

Yoshlar tili kam bo'lgan so'zlardan tashkil topib, 12 – 13 yoshli o'smirlar orasida tarqalgan sotsial dialekt maqomini oladi va odatda bu til yoshlarni kattalardan uzoqlashtirish maqsadida yaratiladi.

Yoshlar tilining o'ziga xos xususiyatlari. Yoshlar slengi xuddi boshqa sleng (jargon)lar singari umumiy milliy tilning fonetik va grammatik asosidagi leksika (lug'at tarkibi)dan tuzilgan, o'zining og'zaki nutqiga tegishliligi ba'zan esa qo'pol va betakallufliigi bilan farqlanadi. Yoshlar tilida ko'proq tarqalgan semantik maydonlar - "inson", "Tashqi ko'rinish", "Kiyim", "Uy", "Bo'sh vaqt" kabilardir.

Yoshlar slengi(jargon)ni boshqa turdagi jargonlardan ajratuvchi xarakterli tomoni uning tez o'zgaruvchanligidir. Bu o'zgaruvchanlik avlodlarning almashinishi bilan asoslanadi.

1.3. Sleng- so`zlashuv tiliga xos hodisa sifatida

“Sleng”, “jargon” va “argo” atamalarining boshlang'ich ma'nolarini aniqlash uchun ularning dastlabki manbalariga e'tiborni qaratish zarur deb hisoblaymiz. “Argo” fransuz tilidan olingan bo'lib, ”argot” – qulflangan, yopib qo'yilgan degan ma'nolarni anglatadi, huddi shunday “jargon” so'zi ham fransuz tilidan olingan bo'lib, “jargon” - ma'lum bir ijtimoiy guruh a'zolarining o'zaro muloqot yuritishida xizmat qiladigan nutq turi deb qaraladi. “Sleng” so'zi esa ingliz tilidan olingan bo'lib, “slang” – jargon degani va u tilshunoslikka aynan ingliz tilidan kirib kelgan⁸. Bu so'zlar (sleng, argo, jargon) odatda sinonim so'zlar deb qaraladi. Lekin ularning kelib chiqishi va qo'llanilishini chuqur o'ganilib qaralsa, ular o'rtasida juda katta farqlar borligiga amin bo'lasiz. Argo – jargondan qaysidir darajada maxfiy til (aynan chetdagi begonalar tushunmasligi uchun yaratilgan ma'lum bir guruh tili) bo'lganligi bilan ham farq qiladi. Shuning uchun ma'lum guruh nomi va undan keyin argo so'zi qo'llaniladi: ("вопросное apro", "apro offense"). Tilshunos olim Roberining kichik lug'atida esa argo atamasi umum qo'llaniladigan atama sifatida “jinoiy muhit tili”, lingvistik atama sifatida esa “ma'lum ijtimoiy guruh tomonidan ishlatiladigan texnikaga oid bo'lmagan leksika” sifatida berilgan. Argoning etimologik kelib chiqishi - “corporation des jeux” – “qora niyatli kishilar jamoasi” sifatida izohlangan.

Roberida jargon atamasi “noto'g'ri, buzilgan” yoki sun'iy yasalgan til sifatida berilib, faqat muayyan a'zolar uchun tushunarli deb ko'rsatilgan. Xuddi shunday talqin boshqa fransuz tilshunoslarida ham uchraydi. Biroq Larus kutubxonasida lug'at tuzuvchilarining fikricha, aynan argo (jargon emas) “ma'lum bir ijtimoiy va kasbiy guruh odamlarining boshqa ijtimoiy birliklarga nisbatan ajralib turish maqsadida ishlatadigan so'z va iboralarining yig'indisi”ni anglatadi.

⁸ Ахманова О.С. “Словарь лингвистических терминов”, – М.: SE, 1969. – С: 419

Sleng atamasi Larusda berilmagan, ammo Roberi va Ashedda “ ingliz argosi” sifatida ta’riflanadi. “Argo haqida 20 mashg’ulot” kitobining muallifi, zamonaviy fransuz tilshunosi Lui-Jan Kalve ushbu atamaga kengroq ma’no yuklaydi. Uning fikricha, argo – og’zaki til namunasi bo’lib, uzoq saqlanmaydigan mualliflik neologizmlariga boy. Uning bir qismi esa og’zaki nutqqa o’tadi. Kalve konsepsiyasiga ko’ra, 20 ta asosiy semantik maydon mavjud bo’lib, ana shu ma’lum sxema asosida doimo yangi argotizmlar yaratiladi. Tilshunosning fikricha, har bir maydonning asosiy metaforik tuzilmasini o’rganib, kishi har qanday noma’lum argotizمنى tushunish va yangi argotizm yasashi mumkin. Shunday qilib, Kalve tadqiqotida argo ma’lum so’z yasash tizimi sifatida tasdiqlanadi.

Argo atamasi Brokgauz va Efroning ensiklopedik lug’atida ham uchraydi. Ammo u izoh berish o’rniga “O’g’rilar tili” maqolasidan parcha keltiradi. Bu esa o’z navbatida bu atamaning o’sha birlik bilan sinonim ekanligidan darak beradi. Natijada turli tadqiqotchilar bu atamaning lug’aviy ma’nosini kengaytirib boradilar. Masalan, O.S.Axmanovanning lug’atida argo jargon bilan bir xil narsa ekanligi, faqat u jargonga nisbatan “peyorativlik va kamsitish ohangidan holi” deb beriladi. Shunga qaramasdan, ko’p tadqiqotchilar argoni jamiyatning quyi qatlamiga tegishli nutqiy vosita sifatida izohlashadi⁹. Zamonaviy argoning xususiyatlari borasida keskin filologik bahslar olib borilmoqda; argo yashirin til sifatida mavjudmi va u expressiv xarakterga egami degan masala bu bahslarning asosini tashkil etadi.

Zamonaviy tilshunoslar yashirin argoning mavjudligini inkor etishmoqda. A.T. Lipatovanning fikricha, “ sun’iy tilning yaratilishi hatto mutaxassis uchun ham juda katta mehnat talab qiladi”. Shuning uchun jamiyatning quyi tabaqa vakillari til qoidalariga xos bo’lmagan oddiy vulgar nutqda muloqot qilishadi. Tilshunoslik qonuniyatlarini mavjud real xaqiqatga nisbatan qo’llash noo’rindir. Chunki bu muloqot vositasi sanalmaydi va u funksional emas. Guruhga xos til ko’proq amaliy foydalanishga mo’ljallangan. Umuman u vosita emas, balki maqsaddir.

⁹ Дюбуа Ж., Эделин Ф., Клинкаберг Ж. “Общая риторика” – М: Прогресс, 1986,- 391 с.

V. Dalning lugʻatida belgilanishicha, “jargon” fransuz tilidan oʻzlashgan atama sifatida qabul qilingan va tarjimada “nutq”, “soʻzlashuv”, “talaffuz”, “mahalliy nutq” tarzida tarjima qilinadi. Ushbu izohda jargonning kodlangan tildan farqiga urgʻu beriladi va atamaning maʼnosida betakalluflik ohangi yoʻq¹⁰. Brokgauz va Efronlar bu tushunchaga yangilik kiritadi; “buzilgan nutq”, shuningdek jargonlar baʼzan maʼlum maqsadlar uchun, masalan, oʻgʻrilar jargoni, kambagʻallar va hokazolar uchun oʻylab chiqiladi. Maʼlum maqsad deganda soʻz guruhining yaratilishi koʻzda tutiladi va u umumiy madaniy fondan mahrum.

XIX asrda vujudga kelgan kasbiy jargonlar, yaʼni ijtimoiy hamda yoshga doir jargonlarni oʻrganish anʼanalari hozirgi paytda yangi yoʻnalishlarga ega boʻlmoqda. Agar kasbiy jargon va umummilliy leksika oʻrtasidagi chegarani aniqlash qiyinchilik tugʻdirmasa, yoshga doir jargonning chegaralarini aniqlash muammo tugʻdiradi. Tadqiqotchilarning maxsus eʼtiborini jalb qilayotgan yoshlar jargoni xususiyatlari borasida turli xil qarashlar mavjud. Baʼzi tilshunoslar jargonning tizimga ega ekanligini va umumiyligini inkor etib, uni qandaydir ijtimoiy guruhning “maxsus tili” sifatida tasavvur qilishadi. M.M. Kopilenkning yozishicha: “ 14 – 15 yoshdan 24 – 25 yoshgacha boʻlgan soʻzlovchilarning katta qismi oʻz tengdoshlari bilan muloqotda bir necha yuz maxsus soʻz va oʻtkir idiomatik birikmalarni ishlatishadi va bu yoshlar jargoni deb ataladi”. Jargonning foydalanuvchilar uchun faqat eng muhim vaziyatlarda qoʻllanilishi haqida ham fikrlar mavjud. Bunday izohda jargon – “ u yoki bu muayyan tilda gaplashuvchilar guruhining nutqiy repertuarini kengaytiruvchi soʻzlar toʻplami boʻlib, bunda jargon strukturaviy aspektlarga taʼsir koʻrsatmaydi va faqat oʻsha guruh uchun eng muhim boʻlgan vaziyatni tasvirlashda va faqat leksik qatlamda ishlatiladi”. Baʼzi tadqiqotchilar jargonni tilning ancha murakkab subtizimi sifatida qararkan, unda leksik birliklar semantikasining ajratilganligini va foydalanuvchilar guruhining chegaralanganligi bilan farqlanishini taʼkidlaydilar.

Til tizimiga umumiy yondashgan holda, jargon tizimning tarkibiy qismi ekanligini va bu qismning butun tizim uchun umumiy qonuniyatlar asosida

¹⁰ Копыленко М.М. “Основы этнолингвистики”ю – Алматы: Евразия, 1995. – С. 47

rivojlanishini ta'kidlash zarur. Shu bilan bir qatorda, jargonga bir qancha xususiyatlar xos bo'lib, bu xususiyatlarning uning alohida subtizim bo'lishiga imkon yaratadi. Yoshlar jargoni bu umummilliy til tarkibidagi maxsus subtizimdir. U 14-25 yoshgacha bo'lgan kishilar o'rtasidagi muloqotda foydalaniladi. Shuningdek, u maxsus leksik birliklar to'plami hamda ma'nolarining o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Bundan foydalanuvchilar jamiyatdagi ijtimoiy – demografik guruh bo'lib, ularni avvalo yosh birlashtiradi. Tadqiqotchilarning fikricha, argo va jargon o'rtasidagi chegarani aniqlash juda muhimdir va bu chegara yashirinlik darajasi bilan belgilanadi. Argo bu yashirin til bo'lib, u bilan yopiq guruh a'zolari, jamiyatning quyi tabaqa vakillari foydalanishsa, jargon bu ajratilmagan guruh atributi bo'lib, muayyan yoshga yoki kasbga oid guruhlarining ijtimoiy dialektidir. Shuning uchun ham, ba'zi olimlarning ta'kidlashlaricha, zamonaviy jinoiy guruhlarining ezoterik leksika o'rniga vulgarizmlardan foydalanishga o'tishi argoning foydalanishdan chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ba'zi bir filologlar jargonni subtizim sifatida emas, balki umummilliy tilning tarkibiga kiritishga harakat qilishadi. Ammo bu holatda ham jargon ijtimoiy markerlanganligi bilan namoyon bo'ladi. “Hozirgi vaqtda jargon haqida qandaydir ijtimoiy guruhning yopiq nutqiy muloqot shakli sifati haqida gapirish noto'g'ri bo'lar edi: yoshlar jargoni nutqning pasaytirilgan usuli bo'lib, tengqurlar orasidagi erkin muloqot vositasidir”.

“Sleng” atamasi leksikologiyada birmuncha kechroq paydo bo'ldi. Og'zaki nutqni o'rganish jarayonida “jargon” va “argo” tushunchalari, tarixiy nuqtai nazardan, undan foydalanuvchilar guruhining chegaralanganligi va leksik birliklar semantikasining ajratilganligini ko'ramiz. Shu bilan bir vaqtda og'zaki nutq til muhiti normalaridan farqli va juda ko'p sonli kishilarni birlashtiruvchi muhit sifatida mavjudligi ham ma'lum bo'ldi. Aynan shu tushuncha sleng nomini oldi. Sleng deganda biz odatda og'zaki nutq turlaridan birini tushunamiz. U jamiyat tomonidan norasmiy (“maishiy”, “betakalluf”, “ishonchli”) nutq shakli sifatida baholanadi. Sleng o'z navbatida argo va jargonga xos birliklarni hamda ularning ma'nolarini metaforik jihatdan o'zgartirib va kengaytirib o'zlashtirishi mumkin.

Bu yerda nutqning ekspressiv, soʻz oʻyini va zamonaviy neologizmlarga boy sunʼiy shakllantirilgan turi haqida gap bormoqda. O.S. Axmanovanning lugʻatida sleng atamasiga ikkita taʼrif berilgan:

1. Kasbiy nutqning ogʻzaki varianti.

2. Maʼlum kasbiy yoki ijtimoiy guruhning ogʻzaki variant elementlari boʻlib, ushbu guruhdagi odamlar nutqidan adabiy til yoki umumiy nutqqa toʻgʻridan-toʻgʻri, ularga aloqasi boʻlmagan holatda kiradi. Natijada sleng tilning ushbu koʻrinishida muayyan emotsional ekspressiv boʻyoqqa ega boʻladi¹¹.

Shunday qilib, sleng, koʻp tadqiqotchilarning fikricha, jargon va argodan farqli oʻlaroq, ikkinchi darajali shakllar toʻplami boʻlib, oʻzlashgan birliklar ehtiyojiga qarab moslashtiriladi. Baʼzilar slengning soʻz oʻyini sifatida ishlatilishiga katta eʼtibor berishsa, O.I.Ermakova fikricha, “har qanday nutqiy ekspressiv birlik slengga aylanishi bilan neytrallashadi va oʻziga xos semantikaga ega boʻladi. Sleng soʻzining maʼnosi “ogʻzaki nutq” va “soʻzlashuv” tushunchalariga yaqindir. Biroq ulardan farqli ravishda u sezilarli ijtimoiy belgilanganlikka egadir.

Sotsiolingvistikada “argo”, “jargon”, “sleng” atamaları oʻrnida “sotsiolekt” atamasini ishlatishni taklif qilish holatlari tez-tez uchrab turadi. Bunday tushunchani kiritishga qaratilgan fikrlarda ham asos bor. Ijtimoiy dialekt kategoriyasida birlashtiriladigan barcha til tuzilmalari uchun umumiy boʻlgan xususiyat – bu ularning ijtimoiy asosining chegaralanganligi, yaʼni ularning muayyan ijtimoiy, ishlab chiqarish guruhlari va yoshlar jamoalari uchun muloqot vositasi sifatida namoyon boʻlishadi. Tilni ijtimoiy hodisa sifatida oʻrganish anʼanalariga asos solgan mashhur tilshunoslar ijtimoiy dialekt haqida oʻz fikrlarini ilgari surganlar. Ularning fikricha, ijtimoiy dialekt maʼlum jamoa va kasbiy guruhlar oʻz maishiy hayotida ishlatiladigan til subtizimidir. Bu atama bir tomondan adabiy tilga, ikkinchi tomondan mintaqaviy dialektlarga qarama – qarshi qoʻyilgan. Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan fikrlar shuni tasdiqlaydiki, atamalar borasidagi bahslar qaysi soʻz yaxshiroq jaranglaydi degan fikrdangina iborat

¹¹ Копыленко М.М. “Основы этнолингвистики”ю – Алматы: Евразия, 1995. – С. 47

bo`lib qolmasdan, jiddiy munosabatni talab qiladi. Binobarin, og`zaki nutqni o`rganish jarayonidagi sotsiolingvistik an`analar ancha chegaralangan bo`lib, inson tilidek murakkab hodisalardan birini kompleks tarzda tushunish uchun kamlik qiladi.

I bobga xulosa

Bu bobni biz alohida sohalarda ishlatiladigan tillar va me`yorning buzilishi uning adabiy nutqga, og`zaki nutqga ta`siri xususida fikr bildirish bilan boshladik. Bunda nutq me`yorining buzilishiga sabab bo`ladigan omillar, ularni bartaraf etish to`g`risida o`zbek va italiyan olimlarining fikrlaridan ham keng foydalandik. Bu sohada albatta alohida sohalarga tegishli leksika to`g`risida ham gapirib o`tdik. Bundan tashqari bu bobda jargonlarning kelib chiqish tarixi, ularning semantik-struktural tuzilishi, jargonlarning kelib chiqish tarixi yuzasidagi turli olimlarning qarashlarini ham tahlil qilishga urundik. Mulohaza yurgizgan masalalarimizdan yana biri jargon, argo va sleng tushunchalari o`zaro sinonimmi yoki, alohida so`zlarmi degan qarama-qarshiliklarga ham yechim topishga urindik. Bu bobda badiiy adabiyotlardan ham foydalandik. S. Ravshanning “Chordoqdan otilgan o`q” asaridan keng foydalandik. Bu asarda keltirilgan ba`zi jargon va argolarni, biz ham bu ilmiy ishimizga misol tariqasida keltirdik. Chunki bu asar jinoyatchilar tilining yorqin namunasi hisoblanadi. Shu o`rinda yoshlar tili jargon bo`la oladimi yohud u alohida qatlamga kiruvchi so`zlar yig`indisimi degan fikrga izlanishlar va ba`zi misollar orqali oydinlik kiritishga harakat qildik. Bu bobdagi biz olib borgan yana bir ko`zga yaqqol tashlanadigan tadqiqotlardan biri bu yoshlar tilining umuman jargon, argo va slenglarning qaysi sohalarda ko`proq tadqiq etilishi degan munozaradir. Albatta tilshunoslikda ma`lumki jargonlar, slenglar va umuman tilga chetdan kirib kelgan so`zlar leksikologiyada keng o`rganiladi. Ammo hozirda tilshunoslikning yangi sohasi hisoblangan sotsial tilshunoslikda bu muammolarning barchasi keng o`rganilmoqda. Albatta bu soha O`zbekistonda yangi soha hisoblanadi, shu sababdan ham kam o`rganilgan. Ammo chet el tilshunoslari bu sohada bizdan ancha ilgarilab ketishgan desak adashmagan

bo`lamiz. Bunga oddiy misol sifatida tilshunos olim Edgar Radtkening tadqiqotlarini tahlil qilishga urindik. Bu bobning asosiy tadqiqot masalalari mana shularda namoyon bo`ladi.

II BOB

UMUMIY VA CHEGARALANGAN LEKSIKA

Tildagi soʻzlarning qoʻllanish darajasi shu til egalari doirasida bir xil emas. Baʼzi soʻzlar ular tomonidan birdek foydalanilsa, baʼzilari esa maʼlum hududda yashovchi yoki maʼlum kasb-hunar bilan shugʻullanuvchi kishilar nutqidagina qoʻllanadi. Shu jihatdan italiyan tili leksikasi ham oʻzbek tili leksikasi singari ikki katta qatlamga boʻlinadi:

- 1) isteʼmol doirasi chegaralangan leksika;
- 2) umumisteʼmoldagi leksika.

Umumisteʼmol doirasi chegaralangan leksika.

Bu qatlamga oid leksika qoʻllanish doirasining chegaralanish xarakteriga koʻra uch turga boʻlinadi:

- 1) dialektal leksika;
- 2) terminologik leksika;
- 3) jargon va argolar.

Dialektal leksika. Maʼlum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos boʻlgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan soʻzlar dialektal leksikani tashkil etadi. Maʼlum dialekt va sheva vakillarigina qoʻllaydigan bunday soʻzlar dialektizmlar deb yuritiladi. Italiyada dialektizmlar keng tarqalgan. Bu davlatda har bir hudud oʻz shevasida gaplashadi. Koʻpincha “shimolliklar” “janubliklarni” tushunishmaydi yoki qisman tushunishmaydi. Masalan: Italiyaning turli viloyatlarida *marinare la scuola* (dars qoldirish) iborasining turlicha ishlatilishi yaqqol koʻzga tashlanadi:

Turin: *Taje`da scola*,

Rim va Venetsiya: *Fare sega* (dars qoldirish),

Milan: *Bigiare la scuola*,

Bolonya: *Fare fughino*,

Rejo Emilya: *Fare focaccia*.

Badiiy adabiyotda mahalliy koloritni berish, nutqni individuallashtirish uchun dialektizmlardan foydalaniladi. Lekin bunday qoʻllash bilan dialektal soʻz adabiy tilga oid boʻlib qolmaydi.

Ba'zi soʻzlar adabiy til va dialektda qoʻllangan holda, adabiy tilda boshqa, shevada boshqa maʼnoli boʻladi.

Terminologik leksika. Professional va ilmiy terminlar (atamalar) terminologik leksikani tashkil etadi.

Ilm-fan, texnika, qishloq xoʻjaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi boʻlgan soʻz yoki soʻz birikmasi termin (atama) deyiladi. Har bir fan, kasb-hunar oʻz terminlariga, shu terminlar jamidan iborat leksikasiga ega. Bunday maxsus leksika terminologiya deb ham ataladi: fizik terminologiya, lingvistik terminologiya kabi.

Terminlar yoki atamalar muayyan bir sohaga oid tushunchalarni aniq ifoda etuvchi soʻzlar boʻlsa-da, lekin bu soʻzlarning qoʻllanishi shu soha kishilari doirasi bilan chegaralangan boʻlishi shart emas. Bunda ikki holatni koʻrish mumkin:

1. Terminlarning maʼnosi sohaga aloqasi boʻlmagan kishilar uchun ham tushunarli boʻladi va ular tomonidan ham qoʻllanaveradi. Masalan: botanikaga oid: cotone, vite, pera, albicocca, grano; sanʼatshunoslikka oid: arena, manifesto, attore; medesinaga oid: influenza, narcosi, iniezione kabilar.

2. Terminlarning maʼlum qismi shu termin oid boʻlgan soha kishilari uchun tushunarli boʻladi va shular nutqida qoʻllaniladi. Tilshunoslikka oid: fonema, morfema, accento, parola base; kimyoga oid: aʼtomo, idroʻgeno, ferro.

Shuni aytish kerakki, umumisteʼmoldagi soʻzlar maʼlum bir sohaga oid tushunchani ifodalovchi soʻz sifatida qoʻllanishi, terminga aylanishi mumkin. Bunday hollarda u soʻz dastlabki maʼnosi bilan umumisteʼmoldagi leksikaga, maxsus (terminologik) maʼnosi bilan esa terminologik (chegaralangan) leksikaga oid boʻladi. Bundan koʻrinib turibdiki lugʻat tarkibidagi maʼlum bir soʻz umumisteʼmoldagi soʻz ham, termin ham boʻlishi mumkin.

Jargon va argolar. Mahalliy hududga tegishli boʻlgan dialektlarning soʻzlari (sheva soʻzlari) dialektizmlar sanalsa, “sinfy dialektning soʻzlari” jargonlar deyiladi. Jargonlar sinfiy ayirmalikni koʻrsatib beradigan, yuqori tabaqa vakillari uchun tushunarli boʻlgan soʻz va iboralardir.

Jargonlar italiyan tilining o`z so`zlaridan, ba`zan boshqa tillardan (ingliz, lotin) olinib qo`llangan so`zlardir.

Jargonlar qo`llanishi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi (frans. *jargon*). Kasbi, jamiyatdagi o`rni, qiziqishi, yoshiga ko`ra alohida ijtimoiy guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, o`g`zaki nutqida ishlatiladigan va ma`nosini boshqalar ko`p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar jargon deyiladi. Misol uchun jargonlarning ba`zi turlarini ko`rib chiqaylik:

1) talabalar jargoni: [yopmoq] (sessiyani tugatmoq), [vozdux] (stipendiya), [yaxlamoq] (imtihondan qaytmoq), [quloq] (chaqimchi), [chizmoq] (qochmoq);

2) yoshlar jargoni: [g`isht] (xunuk), [sindirmoq] (lol qolmoq), [krutoy] (ketvorgan), [risovka] (ko`z-k`z qilmoq), [uxlatmoq] (aldamoq), [strelka] (uchrashuv), [tashlashmoq] (tortishmoq), [baks] (dollar), [muzlatmoq] (harakatdan to`xtatmoq);

3) harbiy hizmatchilar jargoni: [dux] (yangi kelgan askar), [salyaga] (1-2 oy xizmat qilgan askar), [fazan] (xizmatning yarmini o`tagan askar), [ded] (xizmatdan qaytishi yaqinlashgan askar), [diskoteka] (oshxona naryadi);

Agrolar esa aksincha, qiziqishlari, mashg`ulotlari, yoshlari bir xil bo`lgan juda tor doira (guruh)ga mansub kishilar qo`llaydigan, ma`nosi shunday kishilarga tushunarli bo`lgan so`zlardir. Ular umumxalq tiliga oid so`zlardan bo`lsa-da, ammo bunday so`zlar ham keng xalq ommasiga tushunarli bo`lmaydi. Shu jihatdan argolar jargonlarga o`xshaydi.

Bu sinflar, guruhlar yo`qolishi bilan ularga oid jargon va argolar ham yo`q bo`lib ketadi.

Tilning ijtimoiy-dialektal qatlamiga mansub so`zlar badiiy adabiyotda voqelikni ishonarli chiqishi uchun personajlar nutqini individuallashtirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Shu o`rinda og`zaki nutq haqida ham gapirmay iloji yo`q. Chunki aynan o`g`zaki nutq adabiy nutqda yuzaga keladigan o`zgarishlarga asos bo`ladi.

Tilning lugʻat tarkibidagi soʻzlar nutqning biror uslubiga xos boʻlishi yoki nutq uslublariga betaraf boʻlishi mumkin. Shunga koʻra lugʻaviy birliklar ikki guruhga boʻlinadi: uslubiy betaraf soʻzlar va uslubiy xoslangan soʻzlar.

Uslubiy betaraf soʻzlar nutq uslublarining birortasiga xoslanmay, barcha uslublarda birdek qoʻllanilaveradigan lugʻaviy birliklardan tashkil topadi.

Nutqning ayrim uslublari uchungina xizmat qiladigan soʻzlar uslubiy xoslangan soʻzlar deyiladi.

Ogʻzaki nutqning uslubiy chegaralangan leksikasi. Ogʻzaki nutq uchun xarakterli boʻlgan oddiy muomaladagi soʻzlar oʻzining soddaligi, hammaga tushunarli boʻlishi bilan yozma nutqdagi soʻzlardan ajralib turadi. Ogʻzaki nutqda uslubiy boʻyoqdor soʻzlar koʻp ishlatiladi, ularda soddalik, taʼsirchanlik, baʼzan esa erkinlik sezilib turadi. Ogʻzaki nutq leksikasiga:

dialektal soʻzlar ;

oddiy muomalaga oid soʻzlar ;

dagʻal soʻzlar (varvarizmlar) ;

haqorat soʻzlar (vulgarizmlar) ;

jargonlar kiradi.

Ogʻzaki nutqqa oid leksika badiiy asarlarda personajlarning nutqida beriladi.

Yozma nutqning uslubiy chegarlangan leksikasi kitob, jurnal, gazeta va shu kabilarda qoʻllanadigan, umuman, yozma asarlar uchun xarakterli boʻlgan soʻzlarning nisbatan turgʻun, barqaror, uslubiy boʻyogʻi boʻlgan yoki boʻlmagan soʻzlarni taqozo etadi. Jumladan, rasmiy uslubga, poetik leksikaga, xalq dostonlariga, ommabop uslubga oid soʻzlar maʼlum darajada qoʻshimcha boʻyoqqa ega boʻladi. Shu bois mazkur uslublarga xos soʻzlar ogʻzaki nutqqa oid soʻzlardan ajralib turadi.

Ammo ilmiy - texnik terminlar, tarixiy soʻzlar, kasb-hunarga oid soʻzlar, asosan, his-hayajonsiz boʻladi. Hatto avval his-hayajonli boʻlgan soʻz ham termin tusiga kirishi bilan his-hayajon boʻyogʻini yoʻqotadi. Buning oʻrniga "kitobiylik" boʻyogʻi paydo boʻladi. Ana shu "ilmiylik", "kitobiylik", "maxsuslik" xususiyati

ilmiy-texnik terminlarni va kasb-hunar soʻzlarini uslubiy jihatdan umumisteʼmoldagi boshqa soʻzlardan farqlanishiga va qoʻllanish doirasining cheklanishiga olib keladi.

2.1. Jargon: “sinfiylashmagan unsurlar” leksikasi

Nafaqat til tarixida, balki kundalik hayotimizda ishlatiladigan jargonlar tarixidan shu maʼlum boʻladiki, jargon faqatgina yozma nutqga emas, hattoki adabiy nutq janrlarigacha kirib bora oladi. Misol uchun maxbuslar tilida ishlatiladigan *cantare* (kuylamoq) *confessare* (tan olmoq) maʼnosida; yoki talabalar tilidagi *casino* (shovqin) shovqin-suronli joyni va *casinari* sershovqin odamlar maʼnosini anglatadi.

Hozirgi kunda shu singari soʻzlar italyanlarning kundalik ogʻzaki nutqida keng ishlatiladi va hozirda ular jargon sanalmaydi.

“*Jargon*” soʻzi eski fransuz tilidagi “*jargon*” soʻzidan olingan boʻlib “*qushning sayrash*” maʼnosini anglatgan. Eski italyan tilida esa “*Gergone*” deb yuritilgan. Ingliz tilida “*slang*” atamasi ishlatiladi (hozirgi kunda bu soʻz italyan tilida ham keng ishlatiladi) Ispan tilida XVI asrda vujudga kelgan “*Jeriganza*” soʻzida olingan “*jerga*” soʻzi ishlatilgan va nihoyat Portugal tilida “*girigaza*”.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, jargon – odatda shama va topishmoqlardan tashkil topib, maʼlum bir guruhni aniqlash va uni jamiyatda ajratish vazifasini bajaruvchi shartli til.

Jargonning koʻzga koʻringan bir nechta xarakterli tomonlari borki, ularni alohida aytib oʻtmaslikning iloji yoʻq:

1. Jargon doimo umumiy ish faoliyati olib boradigan, umumiy qiziqishga ega boʻlgan bir turdagi odamlar guruhida foydalaniladi. Shundan savdogarlar tili, hunarmandlar, talabalar, maxbuslar tillari vujudga kelgan.

2. Jargonning maqsadi guruhdagi u yoki bu shaxsning mavqeini tan oldirish.

3. Jargon shartli xarakterga ega, yaʼni u tilda parazit singari yashab, soʻz boyligini sharoitga qarab oʻzgartiradi.

4. Jargon o`ta ta`sirchan til bo`lib, faqatgina og`zaki muloqotda xizmat qiladi.

5. Jargon adabiy tilning talabini bajarolmagan bir paytda tilni fonetik jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Shu bilan birga jargon efimer (vaqtinchalik) vazifasini ham o`taydi, ya`ni u adabiy til boshidan o`tkazgan o`zgarish va buzilish holatlarini niqoblovchi vositadir.

6. Jargon ajralib turuvchi til bo`lib, uning mavjudligining uch asosiy sababi bor:

- u biror bir guruhga tegishlilikni bildiradi
- o`qimagan odam uni tushunmaydi
- muloqotning sirliligini kafolatlaydi

7. Jargon eng zich, ixcham va barqaror muloqot vositasidir. (Shubhasiz, jargonga berilgan bunday ta`rif uni adabiy tildan ajratib turadi)

Yoshlar o`z tillari orqali so`z boyliklarini boyitib boradi. Ular kattalardan ajralib turish va biror bir guruhga mansubligini namoyish qilishni istaydilar. Har bir avlod o`zining alohida yoshlar tiliga ega bo`ladi. Italyan tilining hech bir varianti shunaqangi umri qisqa, qayta qurishga moyil va o`zgaruvchan bo`lmagan. So`zlarni yaratish va ma`nolarni o`zgartirish yoshlar tiliga xosdir. Yoshlar tili doim yoshlar madaniyatining bir qismi bo`lib kelgan. Ularning tili, kiyinish va yurish-turishlari 1950- yillardagi “takasaltanglar” dan tortib bugungi “xip-xop” kabi harakatlargacha ularning tili, kiyinishi va o`zlarini tutishlari alohidaligi va jamoalari to`g`risida guvohlik beradi.

Olimlar tomonidan yoshlarning so`zlashish shakli tilning buzilishiga sabab bo`lmoqda deya tanqid qilinmoqda. Har holda tilshunoslar ushbu masalada bir fikrdalar: (“daxshat” / “gap yo`q”) kabi ko`plab iboralar so`zlashuv tiliga kirib bormoqda.

2.2. Yoshlar tili – jargonning bir ko`rinishi.

Yoshlar tili haqida so`z ketganda, tilshunos tadqiqotchilar jargonlarni “ ritorik” deb hisoblasalar, ayrimlar bu bahsga qo`shilmaydilar.

Shu jihatdan 2 xil nazariy fikr yuzaga keladi: Yoshlar tilini jargon deb qarovchilar masalan, maxbuslar jargoniga, jargon emas deb fikrlovchilar esa, yoshlar tili jargon emas faqat turli xil ko`rinishlari mavjudligiga to`xtaladilar.

Ko`pgina olimlar yoshlar romanlari, qo`shiq, jurnal, veb-sayt, kinosenariylar, maktab gazetalari, komiks, graffitlar va boshqa manbalardan yoshlar tiliga xos so`zlarni tahlil qilib uning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilishgan va quyidagicha hulosaga kelishgan.

Yoshlar o`zaro “kattalar” tushunmaydigan muayyan lug`aviy zahiraga ega bo`lgan holda suhbatlashadilar. Bunday til qisqarish, soddalashish va individuallashtirishga harakat qiladi.

Ushbu til g`ayritabiiy so`zlar, vulgarlar, so`kinish so`zlar, o`ylab topilgan atamalarga boy bo`lib, yoshlarni o`zlarining dunyosida boshqalardan chegaralaydi. Ammo buni jargon deya olmaymiz.

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, jargonning maqsadi, jamiyatdan ajralgan holda ma`lum bir guruhlarining shifrovkali yoki kodli aloqasidir. Yoshlar tili esa uning aksi, ya`ni ularning maqsadi o`zini ko`rsatish, o`zlarining jamiyatdagi o`rniga urg`u berishdir.

Yoshlar tili adabiy tildan quyidagicha farqlanadi:

1. Til o`rtaga qo`llanuvchi vositaga aylanadi;
2. Bu til beqaror, o`zgaruvchandir. Chunki uning foydalanuvchilari doimo o`zgarib turadi. Suhbatda qo`llanuvchi jargon doimo yangilanib turadi (avlod vakillarining o`zgarishi bilan)
3. Yoshlar tili bir xil emas .Bu yashash hududi va muloqot turiga bog`liqdir. Masalan, Milanda yashovchi yosh kishi rimliklar iboralaridan ishlatga (qo`llasa), Italiya shimolida yoki sharqida boshqa til unsurlari qo`llaniladi. Shu sababli bir hududda tushunarli bo`lgan ibora yoki atama boshqa hududda tushunarsiz bo`ladi;
4. Yoshlar tili deyarli tushunarsiz bo`lsada, ma`nolar o`zgaruvchanligi kuchlidir.

Turli xil bahs-munozaralarni o`rgangan holda ayrim olimlar yoshlar tilini 5 asosiy (fundamental) unsurlardan tarkib topgan, degan fikrga kelgan. Bular:

- a) asos (baza) – bu ma'lum hudud so`zlashuv nutqi;
- b) dialektlar;
- c) “an'anaviy” jargon;
- d) “novatorlik” jargoni;
- e) reklama va televideniya tilining qorishmasi.

Boshqacha qilib aytganda, yoshlar tili hazil-mutoyiba, metaforalar, qisqartma so`zlar, internet, televideniya va reklamalardan o`zlashgan so`zlar, avtomobil yoki mashinasozlik sohasiga taalluqli bo`lgan so`zlarning qorishuvidan tarkib topgan.

Yoshlar tili tez o`zgaruvchan hodisa bo`lib, uning umri kamida 10 yildan so`ng tugaydi va o`rniga yangisi paydo bo`ladi.

Yoshlar tilidagi qo`llangan so`z va atamalarning yasalish mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin:

- a) Metaforalarning qo`llanishi:

Una cifra, un sacco, un mondo = molto, parecchio, assai (juda, ko`p)
mia morosa e` sacco bella (Men sevgan qiz juda chiroyli);
tiraerare un pacco = innagare (aldamoq),
pinguino = freddo (sovuq),
conigliare = avere paura (qo`rqmoq),
tronco di canna = bella ragazza (chiroyli qiz).

- b) Abbrevatsiya yoki qisqarish:

mega = grande (katta),
prof = professore/ssa (professor, o`qituvchi),
Sore = professore . (Jenskiy rod-da esa: soressa),
punta = appuntamento (uchrashuv),
raga = ragazzo/a (yigit, qiz),
para = paranoia (paranoia(kasallik)),

oc = okay,
mate = matematica (matematika),
compa = compagnia (kompaniya, idora),
maria = marijuana (marixuana(giyohvand modda)),
bona = buonasera, buonanotte (hayrli kech, hayrli tun),
doma = domani (ertaga): *ci si doma*: ci si vediamo domani (ertaga ko`rshamiz).

c) Ingliz tili slenglaridan o`zlashgan chet so`zlar:
flescicare = andare fuori testa (kalladan chiqib ketmoq),
ingliz tilidagi to flash – birdan gup etib yonmoq so`zdan kelib chiqqan,
gym = palestra (sport zal),
no problem, be happy = stai tranquillo (tinchlan),
fly-down = calmati (o`zingni bos),
turnare = girare (aylanmoq),
ingliz tildagi “to turn” so`zidan.

Komiks, musiqa, televideniyadan o`zlashgan terminlar:
fare l’Homer = Gomerga taqlid qilmoq, ya’ni o`z farzandlariga bergan va’dasini ustidan chiqmaslik. Bu ibora “The Simspsons” multserialidagi Gomer Simpson personaji nomidan olingan;

vamos a la playa = maydonga bormoq. 80- yillar urfda bo`lgan ispan qo`shig`idan olingan;

ramboso = kuchli, sog`lom. Silvestr Stalone ijro etgan qahramon Remboga o`xshash.

e) Texnikaga oid atamalar:
amorfo = yuzsiz; ko`rimsiz odam;
fuzo = xorg`in, ado bo`lgan; erigan;
sclerare, svalvolare = unutmoq, esdan og`dirmoq; yodidan chiqarish;
